

# **Surxondaryoda 60 ta aholi punktalarining bosh rejalarini ochiq ma'lumotlari bazasiga joylashtirildi**



*Prezidentimizning 2020 yil 27 noyabrdagi «O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021-2025 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» asosida «Shaffof qurilish» milliy axborot tizimi doirasida O'zbekiston Respublikasi "DSHK GAT" geoportali (<https://dshk.uz/main>) ishga tushirilgan.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagagi PQ-3502-son qarori asosida respublika shaharlari va shahar posyolkalarining bosh rejalarini, shuningdek, qishloqlar (ovullar) fuqarolar yig'inlari hududlarini arxitektura-rejalashtirish jihatidan tashkil etish loyihalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 iyuldagagi 639-son qarori asosida mahalla fuqarolar yig'inlari hududlarining bosh reja loyihalari, qishloq (ovul) aholi punktlarini batafsil rejalahtirish loyihalari hamda yondosh mahallalarni shaharsozlik jihatidan rivojlantirish sxemalarining ishlab chiqilishi belgilangan hamda ishlab chiqilgan loyihalar belgilangan tartibda geoportalga joylashtirilgan.*

*Bugungi kunda mazkur geoportalda Surxondaryo viloyati bo'yicha 60 ta aholi punktlari, shundan 5 ta shaharlar (Termiz, SHerobod, Qumqo'rg'on, Sharg'un, SHo'rchi), 6 ta shaharchalar (Angor, Sariq, Qorliq, Do'stlik, Sarosiyo, Uzun) bosh rejalarini, 38 ta (sobiq qishloq fuqarolar yig'inlari) hududlarning arxitekturaviy rejalahtirishni tashkil etish loyihalari joylashtirilgan.*

*Bu bilan cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mazkur geoportalning ochiq ma'lumotlari bazasida aholi punktlarining bosh rejalaridan ommaviy hujjat sifatida foydalanishlariga imkoniyat yaratib berilgan*

*Bundan tashqari mazkur geoportal viloyat hokimligi rasmiy saytiga (<https://surxondaryo.uz>) integratsiya qilinganligini ma'lum qilamiz.*

